



MEDIA MAKONDA SUN'IY INTELLEKT: YANGI TARIX VA YANGI DUNYOQARASH



Ilmiy-amaliy
konferensiya
MATERIALLARI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**“MEDIA MAKONDA SUN'IY INTELLEKT: YANGI TARIX VA YANGI
DUNYOQARASH”**

ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

(Chirchiq sh, 2025 yil 5 noyabr)

“Media makonda sun'iy intellekt: yangi tarix va yangi dunyoqarash”

mavzusidagi

KONFERENSIYA TASHKILY QO‘MITASI

Rais:

Muxamedov G.I.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Eshchanov B.X.

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor

Ikramov R.A.

Gumanitar fanlar fakulteti dekani

L.K.Axatov

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri

Tashkiliy qo‘mitaning ishchi guruhi:

Madalimov T.A.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Koshanova N.M.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Tashmetov T.X.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Neshitov P.Yu.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Eronov S.Q.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o‘qituvchisi

Xaytmetov R.K.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o‘qituvchisi

Muhammadiyev L.G.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o‘qituvchisi

Nafasov A.K.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o‘qituvchisi

Sunnatov T.R.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

Tuganova L.Dj.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

Ilmurodova F.Sh.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

Yo‘ldoshev U.X.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

Sa‘dullayeva M.X.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

Xolmo‘minov G.B.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

Miraxmedova Sh.N.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

Jurayev H.M.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

Yakubov X.M.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

Imomova U.I.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

Tadjibayeva R.O.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

Umarova Sh.B.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

Nurmanov Sh.J.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

Maxkamov D.Sh.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

Fayzullayev F.E.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

“SULUK AL-MULUK” ASARINING TARIXIY MANBA SIFATIDA O‘RGANILISHI VA UNING ILMIY AHAMIYATI”

Farrux FAYZULLAYEV

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. XVI asrda Movarounnahrda hokimiyatga kelgan shayboniylar sulolasi vakillari ko‘pincha o‘z davrining ma‘rifatli va yuqori ilmiy saviyaga ega shaxslaridan bo‘lganligi tarixiy manbalarda ko‘p etirof etilgan. Bu kabi ma‘lumotlar Movarounnahrda yaratilgan tarixiy qo‘lyozmalarda, balki Eron va Turkiya hududlarida yaratilgan yozma manbalarda ham o‘z aksini topgan. Shayboniylar davriga oid tarixiy manbalar ancha chuqur o‘rganilgan va ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, ayni paytda ushbu davrda yaratilgan va hozirgacha yetarlicha tadqiq qilinmagan qo‘lyozma asarlar ham mavjud. Mazkur maqolada shayboniylar davrining mashhur tarixchisi Fazlulloh ibn Ruzbehon tomonidan yozilgan “Suluk al-muluk” asarining yaratilish tarixi, mavjud nusxalari, matn tarkibi va mazmuniy xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot “Suluk al-muluk”ning tarixshunoslik va manbashunoslik nuqtai nazaridan ahamiyatini yoritish, uning tarixiy voqealar tasviridagi o‘rni va uslubiy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Asar, bob, Fazlulloh, ilmiy, islom, kolofon, manba, manbashunoslik, Movarounnahr, nusxa, shayboniy, siyosat, suluk, tarix, tarixshunoslik, tadqiqot, temuriylar, Ubaydullaxon, xattot.

ИЗУЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ "СУЛЮК АЛ-МУЛУК" КАК ИСТОРИЧЕСКОГО ИСТОЧНИКА И ЕГО НАУЧНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ

Аннотация. Представители династии шейбанидов, пришедшие к власти в Мавераннахре в XVI веке, часто признавались в исторических источниках как образованные и обладающие высоким научным уровнем личности своего времени. Подобная информация отражена не только в исторических рукописях, созданных в Мавераннахре, но и в письменных источниках, созданных на территории Ирана и Турции. Несмотря на то, что исторические источники, относящиеся к эпохе шейбанидов, достаточно глубоко изучены и существует множество научных исследований, тем не менее сохранились рукописные произведения этого периода, которые до настоящего времени исследованы недостаточно. В данной статье подробно анализируются история создания,

сохранившиеся экземпляры, структура текста и содержательные особенности произведения «Сулук ал-мулук», написанного известным историком эпохи шейбанидов Фазлуллахом ибн Рузбеоном. Исследование направлено на выявление значимости «Сулук ал-мулук» с точки зрения исторической науки и источниковедения, а также на определение его места и методологических особенностей в описании исторических событий.

Ключевые слова: произведение, глава, Фазлуллах, научный, ислам, колофон, источник, источниковедение, Мавераннахр, экземпляр, шейбанида, политика, сулук, история, историография, исследование, тимуриды, Убайдуллаххан, каллиграф.

STUDY OF THE WORK “SULUK AL-MULUK” AS A HISTORICAL SOURCE AND ITS SCIENTIFIC SIGNIFICANCE

Abstract. Representatives of the shaybanid dynasty who came to power in Mavarannahr in the 16th century were often recognized in historical sources as enlightened individuals with a high level of scholarly knowledge of their time. Such information is reflected not only in historical manuscripts created in Mavarannahr but also in written sources produced in the territories of Iran and Turkey. Although historical sources related to the shaybanid period have been extensively studied and scientific research exists, there are still manuscript works created during this era that have not been sufficiently researched to this day. This article provides a detailed analysis of the creation history, existing copies, text structure, and content features of the work “Suluk al-muluk,” written by the famous historian of the shaybanid period, Fazlulloh ibn Ruzbehon. This study aims to highlight the importance of “Suluk al-muluk” from the perspectives of historiography and source studies, as well as to identify its role and stylistic features in the depiction of historical events.

Keywords: work, chapter, Fazlulloh, scientific, islam, colophon, source, source studies, Mavarannahr, copy, shaybanid, politics, suluk, history, historiography, research, Timurids, Ubaydullahkhan, calligrapher.

Shayboniylar davri tarixi ko‘plab tarixchilar tomonidan ko‘p o‘rganilgan va yaxshi yoritilgan. Ulardan biri — 1457-1521 yillar orasida yashab ijod qilgan Fazlulloh ibn Ruzbehon al-Isfahoniy bo‘lib, u Mullo laqabi bilan ham tanilgan. Fazlulloh ibn Ruzbehon Fors viloyatining Hunji qishlog‘da tug‘ilgan [6: 149]. Shayboniylar davrining mashhur adibi, tarixchisi va ilohiyot olimi bo‘lgan. Fazlulloh ibn Ruzbehon temuriylar va shayboniylar tarixini keng va chuqur yoritgan muarrix sifatida tanilgan. Uning otasi, Jamoliddin Ruzbehon, Isfahonning zodagon oilasidan bo‘lib, tasavvuf va

fiqh sohalarida yetuk olim edi. Fazlulloh Isfahonda tahsil olib, shahar nisbasini olgan va keyinchalik Ruzbehon Isfahoniy nomi bilan mashhur bo'lgan. U ilm olish maqsadida Hijoz, Makka, Madina va Qohira kabi markazlarda ham ta'lim oldi.

Safaviylar tomonidan shialik mazhabiga o'tkazilish siyosatidan norozi bo'lib, Fazlulloh ibn Ruzbehon Erondan Movarounnahrğa ko'chib keladi. U Shayboniyxon (1451–1510, hukmronlik davri 1500–1510) va Ubaydullaxon (1487–1540, hukmronlik davri 1533–1540) saroylarida faoliyat yuritib, shu mintaqada yashab bir qator tarixiy va badiiy asarlar yaratdi. [4: 10]. Umrining qolgan qismini Fazlulloh ibn Ruzbehon Buxoro va Karmanada o'tkazgan. U 1521-yilda Buxoroda vafot etib, shu yerda dafn etilgan.

Fazlulloh ibn Ruzbehon nafaqat ko'plab she'rlar muallifi, balki islom ilohiyotiga oid shuningdek, tarixiy mazmundagi bir qancha kitob va asarlarning ham muallifi sifatida tanilgan. Uning ijodidan "Halli tajarrid", "Taliqot bar muxolot", "Tarixi olamoroyi Aminiy", "Suluk al-muluk" va "Mehmonnomayi Buxoro" kabi asarlar keng e'tirof etilgan [6: 149]. Fazlulloh ibn Ruzbehonning "Mehmonnomayi Buxoro" va "Suluk al-muluk" asarlari shayboniylar sulolasining, xususan Muhammad Shayboniyxon va Ubaydullaxon davri tarixini batafsil yoritadi.

1509 yilda yaratilgan "Mehmonnomayi Buxoro" asarida Muhammad Shayboniyxon tomonidan qozoq sultonlari Jonish Sulton va Ahmad Sulton uluslariga qarshi uyushtirilgan harbiy yurish tafsilotlari bayon qilinadi. Muallif bu yurishda shaxsan ishtirok etgan, voqealarning ko'pchiligini o'z ko'zlari bilan guvohi bo'lgan, ba'zilarini esa xon va uning yaqin atrofida gildardan eshitgan.

Dunyo kutubxonalarida "Mehmonnomayi Buxoro" asarining ikki nusxasi mavjudligi ma'lum bo'ldi. Ulardan biri muallifning dastxati bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida №1414 raqami ostida saqlanadi, ikkinchi nusxasi esa Turkiyadagi "Nuri Usmoniya" kutubxonasida joylashgan. 1976 yilda R. Jalilova tomonidan Toshkentda saqlanayotgan nusxa asosida fors-tojik tilidan rus tiliga tarjima qilingan va foto faksimil nashri bosma shaklida chiqarilgan [8: 30].

Fazlulloh ibn Ruzbehon tomonidan yozilgan yana bir muhim asar — "Suluk al-muluk" ("Podshohlarning xulq-atvori haqida") shayboniy hukmdori Ubaydullaxon sharafiga bag'ishlangan. Asarning avtograf nusxasi Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida ushbu asardan taxminan o'n nusxa mavjud bo'lib, ularning barchasi fors tilida yozilgan.

Ushbu nusxalardan biri, inventar raqami 10976 bo'lgan qo'lyozma, kitobat san'atining eng noyob namunalaridan biri hisoblanadi. Asar fors tilida yozilgan bo'lib, 1514 yilda (hijriy 920) Buxoroda bitilgan. Qo'lyozma jami 245 varaqdan tashkil topgan bo'lib, har bir varaqda 17 qator yozilgan. Asar nastaliq xatida, Sharq qog'ozida, XVIII asrda Muhammad Sharif Nasafiy tomonidan ko'chirilgan [1: 245].

“Asar keng muqaddimaga ega bo'lib, muqaddima birinchi varaqdan 20-varaqgacha davom etadi va unda asarning yozilish sabablariga to'xtaladi. Qo'lyozmada Buxoro maktabiga xos hoshiyalar ham mavjud [7: 145]. Matn va uning hoshiyalari juda nafis, oltin suvi bilan bezalgan tarzda yozilgan. Asar 15 bobdan iborat bo'lib, ayrim tadqiqotlarda qisman tahlil qilinsa-da, hech qaysi tilga to'liq tarjima qilinmagan.

Ubaydullaxon yosh va tajribasiz taxt egasi bo'lgani uchun unga yo'l-yo'riq beruvchi qo'llanma zarur edi. Shu bois, muallif ushbu asarni yozishga qaror qilgan. Asarning oltinchi bobigacha bo'lgan qismida Ubaydullaxon va Zahiriddin Muhammad Bobur o'rtasidagi munosabatlar, Shoh Ismoil Safaviy (1501–1524) qo'shinlarining mag'lubiyati, shuningdek, shayboniylar tomonidan Movarounnahr hududlarining qayta egallanishi haqida ma'lumotlar beriladi. Asarning asosiy qismi, 6-bobdan 138a dan 164b varaqgacha, shariat asosidagi soliq siyosatiga bag'ishlangan [6: 164].

Asarda muqaddima va xotima qismi mavjud bo'lib, xotima ilmiy adabiyotda kolofon deb ataladi. Kolofon bo'limida odatda asarning ko'chirilgan yili, xattotning ismi va qayerda yozilganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ammo har doim ham xattot o'z ismini yozmaydi; ba'zida o'zini faqir yoki oddiy inson sifatida taqdim etib, bu ishni savobdan mahrum qolmaslik maqsadida qilgan. Bunday yondashuv “O'ng qo'ling berganini chap qo'ling bilmasin” degan hikmatga mos keladi.

Fazlulloh ibn Ruzbehon “Suluk al-muluk” asarini yozishga nima sabab bo'ldi?

1510 yilda Muhammad Shayboniyxon Shoh Ismoil Safaviy bilan yuz bergan to'qnashuvda halok bo'lgach, Shoh Ismoil Safaviy Movarounnahr to'g'ridan-to'g'ri bostirib kirmay, bu hududni egallashda Zahiriddin Muhammad Boburdan foydalanishga harakat qiladi. Bu yerda legitimlik masalasi ham mavjud edi, chunki Movarounnahr taxti Temuriylar avlodi bo'lgan Zahiriddin Muhammad Boburga haqli edi. Shoh Ismoil Safaviy uni shayboniylardan hududni tortib olishga undaydi. Shu maqsadda Zahiriddin Muhammad Boburga Ahmadbek So'fi o'g'li va Shohruhbek Afshor boshchiligida qo'shin jo'natiladi. 1511 yil oktyabrda Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqandni uchinchi bor egallaydi va Shayboniylar hukmronligiga barham beriladi.

Shayboniylar qiyin vaziyatga tushib, eng nufuzli sultonlari, jumladan Toshkent hukmdori Muhammad Temur, Farg'ona hukmdori Jonibek Sulton va Samarqanddagi Ubaydullaxon Turkistonga qochib o'tadi. Turkiston sultoni Ko'chkunchixon ularni qabul qiladi. Shu tariqa Shayboniylar tomonidan tashkil etilgan davlat Movarounnahrda 10 yil davomida mavjud bo'lib, so'ngra qulaydi.

Movarounnahrda yashovchi shayboniy sultonlar, asoslarini islomning sunniy mazhabiga tayangan holda, aholi diniy e'tiqodidan ustunlik bilan foydalangan. Movarounnahr taxti uchun kurash nafaqat siyosiy, balki diniy mojaro shaklini olgan. "Suluk al-muluk"da keltirilishicha, 1512 yil 7 aprelda Turkistonda Ahmad Yassaviy maqbarasi oldida katta yig'in o'tkaziladi. Bu yig'inda Ubaydullaxon Movarounnahrni qo'lga kiritgach, umr bo'yi dindor hukmdor bo'lishga qasam ichadi va shu va'dasiga sodiq qoladi. Keyinchalik, 1512 yil bahorida, Ubaydullaxon Zahiriddin Muhammad Boburga qarshi urush boshlaydi.

Muhammadiyor ibn Arab Qatag'on (XVI–XVII asr)ning "Musaxxir al-bilod" asarining Toshkentdagi qo'lyozma nusxasidagi hoshiyada "Suluk al-muluk" asarining muqaddimasi joylashgan bo'lib, uning qisqacha yozilish tarixi keltirilgan [5: 393]. 1512 yil aprel oxirlarida Jonibek Sulton, Muhammad Temur va Ubaydullaxon Yettiquduq va To'rtquduq yo'li orqali G'ijduvonga yetib borib uni egallaydi. Keyinchalik Buxoroga hujum qilib, shaharni qamal qiladi. Ubaydullaxon 2500–3000 askar bilan Malikrabort orqali Buxoroning hozirgi Jondor tumani yaqinidagi Malik ko'li atrofiga yetib boradi va Bobur qo'shiniga hujum uyushtiradi. 1512 yil 28 aprelda bo'lgan ushbu jangda Bobur mag'lub bo'ladi. Samarqand masjidida Ubaydullaxon g'alabasi sharafiga xutba o'qiladi. Bu jang turkiy xalqlar tarixida hamda umumjahon jang san'ati tarixida o'ziga xos iz qoldirgan.

"Suluk al-muluk"da keltirilgan ma'lumotlar Temuriylar tarixchilari yozgan asarlarda uchramaydi. Fazlulloh ibn Ruzbehon Zahiriddin Muhammad Bobur qo'shinlarining tarkibi va soni haqida keng ma'lumot beradi, Movarounnahrning turli ijtimoiy qatlamlarining kayfiyatini tasvirlaydi. Zahiriddin Muhammad Boburning qo'shini Chig'atoy, Mo'g'ul, Turkman, Badaxshon va Hindistonlik askarlardan tashkil topgan bo'lib, uning soni 60 ming otliq deb ko'rsatilgan [1: 11].

Keyingi yillik mualliflari Fazlulloh ibn Ruzbehon ijodidan asosiy manba sifatida foydalangan. Masalan, Mahmud bin Valiyning "Bahr al-asror" va Abdulloh Nasrullohiyning "Zubdat ul-osor" asarlari ayniqsa temuriylar davri tarixini yoritishda uning ta'siridan chetda qolmagan. Bu mualliflar Zahiriddin Muhammad Boburning shayboniylar bilan munosabatlarida Fazlulloh ibn Ruzbehon yondashuvini asosan qabul qilgan.

Fazlulloh ibn Ruzbehon tomonidan XVI asr boshlarida yozilgan “Suluk al-muluk” asari Movarounnahr tarixining muhim manbalaridan biri sifatida o‘ziga xos ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu asar shayboniylar sulolasining siyosiy, ijtimoiy va diniy hayotini yoritishda noyob tarixiy materiallar taqdim etadi, xususan Ubaydullaxon davridagi voqealar va siyosiy jarayonlar batafsil tasvirlangan. “Suluk al-muluk” nafaqat siyosiy voqealarni, balki o‘sha davrning shariatga asoslangan soliq siyosati, xalqning ijtimoiy kayfiyati hamda davlat boshqaruvidagi uslubiy jihatlarni ham yoritadi.

Asarning turli nusxalari ko‘plab kutubxonalar va arxivlarda saqlanib, uning tarixshunoslik va manbashunoslikda chuqur tadqiq qilinishga munosib ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur tadqiqot “Suluk al-muluk”ning tarixiy voqealarni tasvirlashdagi metodologik o‘ziga xosligi va tarixshunoslikda tutgan o‘rni haqida yangi ilmiy ma’lumotlar beradi. Shu bilan birga, asar orqali shayboniylar va temuriylar davrining siyosiy-iqtisodiy munosabatlari, shuningdek, mintaqaning diniy-siyosiy vaziyati aniqroq tushuniladi.

Umuman olganda, “Suluk al-muluk” nafaqat o‘z davrining tarixiy haqiqatlarini aks ettiruvchi manba, balki Movarounnahr tarixini o‘rganishdagi muhim ilmiy meros sifatida tarixshunoslikda o‘z o‘rnini mustahkamlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. فضل الله بن روزبهان الاصفهانی سلوك الملوك O‘z FASHI qo‘lyozma Inv № 10976. 245 varaq.
2. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б.352.
3. Бобоев Ҳ., Хидиров З. ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи (II китоб). – Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2009. – Б. 175.
4. Замонов А. К. Тўхтабеков. Бухоро хонлигида ижтимоий, сиёсий-иқтисодий жараёнлар. - Тошкент: ТУРОН-ИҚБОЛ, 2018. – 10 б.
5. Мухаммадёр ибн Араб Қатағон. Мусаххир ал-билод. (Мамлакатларнинг эгалланиши) / Форс тилидан тарж., изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Исмоил Бекжонов ва Дилором Сангирова. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 393.
6. Манбашунослик./ Тузувчилар: Абдумажид Мадраимов, Гавҳар Фузаилова. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2007. – Б. 149.
7. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР (СВР), т. 10. – Ташкент: 1987.- № 6884.

8. Фазлуллоҳ ибн Рузбеххон. Мехмонномаи Бухоро // Ўзбекистон тарихи Хрестоматия XVI-XIX асрлар. -Т.: Fan va texnologiya, 2014-5. 30.
9. Хумоюннома: Заҳриддин Муҳаммад Бобурнинг ўғли — Хумоюн подшоҳнинг аҳволи // Форс тилидан С. Азимжонова таржимаси; масъул муҳаррир: А. П. Қаюмов. — Т.: «Маънавият», 1998. – В. 4.

36.	Koshanova, N. (2025, november 5). ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI. Media makonda sun'iy intellekt: yangi tarix va yangi dunyoqarash. https://doi.org/10.5281/zenodo.17785036	201
37.	FAYZULLAYEV, F. (2025, november 5). "SULUK AL-MULUK" ASARINING TARIXIY MANBA SIFATIDA O'RGANILISHI VA UNING ILMIIY AHAMIYATI". Media makonda sun'iy intellekt: yangi tarix va yangi dunyoqarash. https://doi.org/10.5281/zenodo.17785042	207
38.	To'rayev, A. (2025, november 5). TALABALARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA JALB QILISH- KASBIY RIVOJLANISHNING ASOSI. Media makonda sun'iy intellekt: yangi tarix va yangi dunyoqarash. https://doi.org/10.5281/zenodo.17785049	214
39.	Xo'jageldiev, I. (2025, november 5). VIRTUAL MUZEYGA SAYOHAT. Media makonda sun'iy intellekt: yangi tarix va yangi dunyoqarash. https://doi.org/10.5281/zenodo.17785051	217
40.	Baxranov, L. (2025, november 5). TASVIRIY SAN'AT VA ILM-FANNING DIALEKTIK ALOQADORLIGI: RETROSPEKTIV TAHLIL. Media makonda sun'iy intellekt: yangi tarix va yangi dunyoqarash. https://doi.org/10.5281/zenodo.17785059	223
41.	Abduraxmonov, I. (2025, november 5). YUSUF XOS HOJIB SHARQ UYG'ONISH DAVRINING BUYUK MUTAFAKKIRI. Media makonda sun'iy intellekt: yangi tarix va yangi dunyoqarash. https://doi.org/10.5281/zenodo.17785062	227
42.	Gulmatova, S. (2025, november 5). "SAODAT SOHILI " QISSASIDA BOBUR OBRAZI. Media makonda sun'iy intellekt: yangi tarix va yangi dunyoqarash. https://doi.org/10.5281/zenodo.17785079	231
43.	Rasulov, A. (2025, november 5). BOZORNI O'RGANISHDA MARKETINGNI RIVOJLANTIRISHNING AFZALLIKLARI. Media makonda sun'iy intellekt: yangi tarix va yangi dunyoqarash. https://doi.org/10.5281/zenodo.17785089	235
44.	Rasulov, A. (2025, november 5). IQTISODIY TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINING IMKONIYATLARI. Media makonda sun'iy intellekt: yangi tarix va yangi dunyoqarash. https://doi.org/10.5281/zenodo.17785752	240
45.	Хўжаев, А. (2025, november 5). ЗАМОНАВИЙ СИЁСИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ СИЁСИЙ БОШҚАРУВДАГИ АҲАМИЯТИ. Media makonda sun'iy intellekt: yangi tarix va yangi dunyoqarash. https://doi.org/10.5281/zenodo.17785758	243
46.	Турахужаев, О. (2025, november 5). БЎЛАЖАК ОФИЦЕРЛАРДА ТАНҚИДИЙ ВА СТРАТЕГИК ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ-ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ. Media makonda sun'iy intellekt: yangi tarix va yangi dunyoqarash. https://doi.org/10.5281/zenodo.17785763	248
47.	Жўраев, Х. (2025, november 5). ТУРКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАЪЛИМ (АБДУРАУФ ФИТРАТ МИСОЛИДА). Media makonda sun'iy intellekt: yangi tarix va yangi dunyoqarash. https://doi.org/10.5281/zenodo.17785793	253